

STRUCTURAL AND SEMANTIC FEATURES OF LEXEMES DENOTING CONSANGUINITY IN SPANISH, RUSSIAN AND UZBEK LANGUAGES (*padre – ota; madre – мать – ona*)

Mehrikhon Rakhmat kizi SAIDKHODJAEVA

Teacher

Uzbekistan State World Languages University

Tashkent, Uzbekistan

ISPAN, RUS VA O'ZBEK TILLARIDA QON-QARINDOSHLIKNI BILDIRUVCHI LEKSEMALARNING STRUKTUR-SEMANTIK XUSUSIYATLARI (*padre – ota; madre – мать – ona*)

Mexrixon Raxmat qizi SAIDXODJAYEVA

O'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЛЕКСЕМ, ОБОЗНАЧАЮЩИХ КРОВНОЕ РОДСТВО, В ИСПАНСКОМ, РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ (*padre – ota; madre – мать – ona*)

Мехрихон Рахмат кизи САИДХОДЖАЕВА

Преподаватель

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):

Saidkhodjaeva M.R. Structural and Semantic Features of Lexemes Denoting Consanguinity in Spanish, Russian and Uzbek Languages (*padre – ota; madre – мать – ona*) // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2025. — 11-jild, № 2. — B. 117-134.

<https://doi.org/10.36078/1746095218>

Received: February 27, 2025

Accepted: April 17, 2025

Published: April 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>

Abstract. This article is dedicated to a comparative study of the features of kinship terms in Uzbek, Russian, and Spanish languages, as well as an analysis of their similarities and differences. The author, through examining several scientific works related to the studied issue, highlights the relevance of the article. Based on factual material (dictionaries, texts of literary works): 1. The systematic simplification of all kinship terms used in Spanish, Russian, and Uzbek languages, except for families, is demonstrated, with their relationship defined by social status. 2. It is noted that the semantics of lexemes denoting non-equivalent blood relatives, which do not exist in Spanish, Russian, or Uzbek cultures, can only be determined through description or interpretation. 3. Interpretations of words such as *padre*, *madre* (Spanish), *отец*, *мать* (Russian), and *ota*, *ona* (Uzbek), provided in dictionaries, are studied, revealing the uniqueness of the formation and development of family-kinship relationships in Spanish, Russian, and Uzbek cultures. 4. Differences in the origin and semantic structure of the Spanish words *padre*, *madre*, the Russian words *отец*, *мать*, and the Uzbek words *ota*, *ona* are proven. 5. The emergence of Spanish and Russian words such as *papá*, *mamá*; *nána*, *máma*, respectively, is justified as a result of the repeated repetition of the syllables *pa-* (*na-*) and *ma-* (*ma-*) in baby babbling speech. 6. The use of the word *má-má* in Uzbek to



mean ‘maternal breast’ is revealed, unlike the lexemes *madre* in Spanish and *мать* in Russian, which are used in the language of infants up to a certain age.

Keywords: *padre, madre*; отец, мать; *ota, ona*; Spanish; Russian language; Uzbek language; consanguinity terms.

Annotatsiya. Maqola ispan, rus, o‘zbek tillarida qon-qarindoshlikka oid terminlarning xususiyatlarini qiyoslab-chog‘ishtirib o‘rganishga hamda o‘xshash va farqli jihatlarining tahliliga bag‘ishlangan. O‘rganilayotgan muammoga tegishli qator ilmiy ishlarni tadqiq qilish yo‘li bilan muallif maqolaning dolzarbligini ochib bergan. Faktik material (lug‘atlar, badiiy adabiyot matnlari) asosida: 1. Ispan, rus va o‘zbek tillarida qo‘llanilgan barcha qarindoshlik terminlarining tizimli ravishda soddalashtirilganligi, oilalardan tashqari, ularning munosabatlarini ijtimoiy mavqei bilan belgilanganligi ko‘rsatib berilgan. 2. Ispan, rus yoki o‘zbek madaniyatida mavjud bo‘lmagan ekvivalentsiz qon-qarindoshlikni bildiruvchi leksemalarning semantikasi faqat tavsif yoki talqin yo‘li bilan aniqlanishi mumkinligi qayd qilingan. 3. Lug‘atlarda keltirilgan *padre, madre* (ispan) *отец, мать* (rus) va *ota, ona* (o‘zbek) kabi so‘zlarning izohlari tadqiq qilingan, ispan, rus va o‘zbek xalqlarining oilaviy-qarindoshlik munosabatlarining shakllanishi hamda rivojlanishining o‘ziga xosligi ochib berilgan. 4. Ispancha *padre, madre*, ruscha *отец, мать*, o‘zbekcha *ota, ona* so‘zlarining kelib chiqishi va semantik strukturasini bir-birovidan farqlari dalillangan. 5. Ispan va rus tillariga tegishli ravishda taalluqli bo‘lgan *papá, mamá; nana, máma* so‘zlari bolalarning ilk talaffuz jarayonlarida *pa- (na-), ma- (ma-)* bo‘g‘inlarining ikki marotaba qaytarilishi evaziga paydo bo‘lgani isbotlangan. 6. *Má-má* so‘zi o‘zbek tilida go‘daklar tilida muayyan yoshgacha, ispancha *madre* va ruscha *мать* leksemalaridan farqli ravishda, “ona siynasi” ma’nosida qo‘llanilishi ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: *padre, madre*; отец, мать; *ota, ona*; ispan tili; rus tili; o‘zbek tili; qon-qarindoshlik terminlari.

Аннотация. Статья посвящена сравнительно-сопоставительному изучению особенностей терминов кровного родства узбекского, русского и испанского языков, а также анализу их сходств и различий. Автором путем исследования ряда научных работ, касающихся изучаемой проблемы, раскрыта актуальность темы статьи. На основе фактического материала (словарей, текстов художественных произведений): 1. Показаны систематическое упрощение всех терминов родства, используемых в испанском, русском и узбекском языках, за исключением семей, определение их взаимоотношения социальным статусом. 2. Отмечено, что семантика лексем, обозначающих безэквивалентных кровных родственников, не существующих в испанской, русской или узбекской культуре, может быть определена только путем описания или интерпретации. 3. Исследованы толкования таких слов, как *padre, madre* (испанских) *отец, мать* (русских) и *ota, ona* (узбекских), приведенные в словарях, и раскрыто своеобразие формирования и развития семейно-родственных отношений испанского, русского и узбекского народов. 4. Доказаны различия между происхождением и семантической структурой испанских слов *padre, madre*, русских — *отец, мать* и узбекских — *ota, ona*. 5. Обосновано появление испанских и русских слов, соответственно *papá, mamá; nana, máma*, относящихся к испанскому и русскому

языкам, в результате двукратного повторения в детской лепетной речи слогов *pa-* (*па-*), *ma-* (*ма-*). 5. Раскыто использование в значении ‘материнская грудь’ в узбекском языке слова *má-má*, в отличие от лексем испанского *madre* и русского *мать*, в языке младенцев до определенного возраста.

Ключевые слова: padre, madre; отец, мать; ota, ona; испанский язык; русский язык; узбекский язык; термины кровного родства.

Kirish

Qon-qarindoshlik leksemalari uzoq vaqtdan beri jahon, jumladan, ispan [Alexis 2012: 1385–1394; Traducción; Wallace 1960: 58–80], rus [Моисеев 1963: 120–132; Головкина 1999; Кошелева 2009: 58–80], o‘zbek [Ишаев 1971: 120–132; Саидова 1995] tilshunoslarning diqqat-e’tiborini o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Ammo uning hali bir qator o‘z yechimini kutib turgan muammolari va qirralari mavjud.

Ispan, rus va o‘zbek tillari lug‘at tarkibida har bir qon-qarindoshlik leksemasi o‘z o‘rniga ega. Bunga ishonch hosil qilish uchun qon-qarindoshlikni bildiruvchi ba’zi leksemalarning, jumladan, isp. *padre* — rus. *отец* — o‘zb. *ota*; isp. *madre* — rus. *Мать* — o‘zb. *ona*, struktur-semantik xususiyatlarini qiyosiy-chog‘ishtirma usulda ko‘rib chiqamiz.

Tadqiqotning maqsadi ispan, rus va o‘zbek tillaridagi qon-qarindoshlik leksemalarining struktur-semantik xususiyatlarini o‘rganish orqali ularning o‘xshash va farqli tomonlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ispan, rus va o‘zbek tillaridagi leksikografik manbalarda va badiiy adabiyot hamda paremiologik matnlarda qo‘llanilgan qon-qarindoshlik (*padre* — *отец* — *ota*; *madre* — *мать* — *ona*) leksika tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek, rus va ispan tillaridagi qon-qarindoshlik (*padre* — *отец* — *ota*; *madre* — *мать* — *ona*) leksemalarining kelib chiqishi, shakllanishi, leksik-semantik xususiyatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Maqolada lingvistik tahlil, qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-chog‘ishtirma usullaridan foydalanilgan.

Asosiy qism

Padre – отец – ota

Vertikal chiziqli qon-qarindoshlikni bildiruvchi ispancha *padre*, ruscha *отец*, o‘zbekcha *ota* terminlari “erkak ota” va “qon-qarindoshli ota”, ya’ni ‘o‘z farzandlariga nisbatan erkak’ differensial semantik elementiga ega [Ломтев 1976: 274].

Ruscha *отец* va o‘zbekcha *ota* vertikal chiziqli qon-qarindosh leksemalarining ispancha ekvivalenti *padre* kelib chiqishi nuqtayi nazardan lotincha hisoblanadi [Wallace, Atkins 1960: 64, 75. J.]. Ta’kidlash lozimki, rus va o‘zbek tillaridan farqli o‘laroq, ispan tilida *padre* so‘zi bilan bir qatorda ‘ota’ ma’nosini anglatish uchun uning sinonimi *progenitor* (“onani belgilash uchun jenskiy rodning -a okonchaniyasi talab qilinadi — *progenitora*”) qo‘llaniladi [Сандлер 220: 235].

Ispan tilida *padr-* ildizi yordamida o'zining ma'nosi bo'yich *padre* so'ziga yaqin bo'lgan *padraastro*, *padrino* kabi leksemalar paydo bo'lgan.

O'zbek tilida ispancha "padraastro" termini va uning ruscha ekvivalenti "отчим" 'ўтай ота' ko'rinishiga ega: "Tu padraastro dijo que lo buscaba para su trabajo 'Твой отчим сказал, что он просматривал их для своей работы'" [Перевод «para su trabajo» на русский язык. URL: <https://context.reverso.net/перевод/испанский-русский/para+su+trabajo>] — 'Sizning o'gay otangiz uni ish uchun qidirayotganini aytdi (tarjima bizniki. — M. R.).

Padrino rus tiliga 'крёстный отец', o'zbek tiliga 'cho'qintirgan ota' deb o'giriladi — "No puedes pedir ser el padrino 'Ты не можешь просто назваться крестным отцом и все'" [El padrino — translation from Spanish into Russian. URL: <https://translate.yandex.com/dictionary/es-ru/el%20padrino>] — 'Sen o'zingni shunchaki cho'qintirgan ota ('cho'qintirilgan o'g'il-qizga nisbatan') deb atay olmaysan va vassalom' (tarjima bizniki. — M. R.). Ispancha "padrino" va ruscha "крёстный отец" terminlari faqatgina nasroniy (xristianlik) marosimini — cho'qinishni tan oladigan ispan va rus xalqlari tillariga tegishli. Shuning uchun o'zbek (musulmon) madaniyatida mavjud bo'lmagan va o'zbek tilida ma'no jihatdan mos kelmaydigan ekvivalentsiz leksemalarni faqat izohlash (tavsiflash, sharhlash) mumkin.

Shu bilan birga, Ispaniyada bolalar o'zlarining otalariga nafaqat *padre*, balki *papá* so'zini ishlatish yo'li orqali ham murojaat qilishadi: "Papá, ¿vendrás conmigo al museo? — 'Папа, ты сходишь со мной в музей?'" [Перевод «museo» на русский. URL: <https://context.reverso.net/перевод/испанский-русский/museo>]. E'tiborli tomoni shundaki, oxirgi leksema — *papá* ular haqida boshqalarga gapiradigan hollarda qo'llaniladi. Bolalar nutqida kichraytish-erkalash murojaati uchun usbu so'zning o'zgartirilgan boshqa shakllari ham uchraydi: *papi*, *papaito*, *papito*, *papalto*, *pacit* [Как обращаться к родственникам и любимым. URL: <https://ichebник.ru/tonkosti-ispanskogo/772-kakobrashchatsya-k>].

Leksikograflar orasida umumiy qabul qilingan fikrga ko'ra, slavyan tillarida *pápa* so'zi poyma-poy bolalarning ilk talaffuzlarida *pa* bo'g'inining ikki marotaba qaytarilishi evaziga paydo bo'lgan [Шанский, Иванов, Шанская: 1971: 325]. Shu asnoda, ispan tilida *pápa*, boshqa so'zlar bilan birgalikda yangi ma'noga ega bo'ladi: *mis papas* 'мои родители' — "Y mis papás nunca me lo contaron 'И мои родители никогда бы не рассказали мне об этом'" [Перевод *mis papas* на русский язык // <https://context.reverso.net>]; *Papá Noel* «Дед Мороз» — "Papá Noel está muy atento a los niños y las cartas de sus peticiones 'Дед Мороз очень внимательно относится к письмам ребят и к их просьбам'" [Перевод *Papá Noel* на русский язык // <https://context.reverso.net>].

Shuni ta'kidlash kerakki, ispan tilida *padre* quyidagilarga murojaat qilganda ham ishlatiladi:

- 1) ruhoniylarga — *Padre Beatitud* (Святейшество);
- 2) diniy kollej o'qituvchilariga — *Padre Armando* (Отец Армандо).

Ispancha "Nuevo diccionario esencial de la lengua Española" (Ispan tilining yangi izohli lug'ati) manbasida *padre* so'zi quyidagicha ta'riflangan:

«1. Hombre o animal macho respect de sus hijos o krias. 2. Animal macho destinado, como semental, a la reproduccion. 3. Autor de una cosa o idea. 4. Cabeza de una descendencia. familia, etc. 5. Persona que ha influido o adelantado mucho en una ciencia o rama del saber. 6. Tratamiento que se da a los religiosos y sacerdotes. 7. En la religion catolica, primera persona de la Santisima Trinidad. 8. El padre y la madre. 9. Antepasados. 10. Muy grande, muy importante. 11. Padre de familia. 12. Padre de la Iglesia. 13. Padre de la patria. 14. Padre spiritual. 15. Padre santo».

‘1. Человек или животное мужского пола по отношению к своим детям или молодым; 2. Животное мужского пола, предназначенное, как жеребец, для воспроизводства. 3. Автор вещи или идеи. 4. Глава потомства, семьи и т. д. 5. Человек, который повлиял на науку или отрасль знаний или продвинулся в их развитии. 6. Лечение монахов и священников. 7. В католической религии — первое лицо Святой Троицы. 8. Отец и мать. 9. Предки. 10. Очень большой, очень важный. 11. Отец семьи. 12. Отец Церкви. 13. Отец страны. 14. Духовный отец. 15. Святой отец’ (tarjima bizniki. — M. R.).

‘1. Erkak jinsli Inson yoki hayvonning o‘z bolalari yoki yoshlarga munosabati bo‘yicha. 2. Ko‘payish uchun mo‘ljallangan, xuddi ayg‘ir ot kabi, erkak jinsli hayvon. 3. Narsa (buyum) va g‘oyalar. 4. Nasl (avlod, urug‘) oila boshlig‘i va boshqalar. 5. Fan, bilim sohasiga ta‘sir ko‘rsatgan yoki ularni ilgari surilishiga hissa qo‘shgan shaxs. 6. Dindorlar va ruhoniylar bilan muomala. 7. Katolik dinida — “Святая Троица”ning [Русско-узбекский словарь: 1984: 596] birinchi shaxsi. 8. Ota va ona. 9. Ajdodlar. 10. Juda katta, juda muhim. 11. Oila otasi. 12. Cherkov otasi [Русско-узбекский словарь: 1984: 706]. 13. Vatan otasi. 14. Ma‘naviy ota. 15. Avliyo (muqaddas) ota” [Diccionario esencial de la lengua Española: 908] (tarjima bizniki. — M. S.).

Rus tiliga:

padraastro ‘отчим’ deb tarjima qilinadi — «Tu padraastro dijo que lo buscaba para su trabajo» ‘Твой отчим сказал, что он просматривал их для своей работы’ [Перевод «para su trabajo» на русский язык. URL: <https://context.reverso.net/перевод/испанский-русский/para+su+trabajo>]; *padrino* ‘крёстный отец’ deb o‘giriladi — No puedes pedir ser el padrino ‘Ты не можешь просто назваться крестным отцом и все’ [El padrino — translation from Spanish into Russian. URL: <https://translate.yandex.com/dictionary/es-ru/el%20padrino>].

P. Y. Chernix bevosita qon-qarindosh umumslavyan terminini tahlil qilib, jumladan, quyidagilarni jozadi: “*отъць* so‘zi hind-evropa *āt > ōt* (qiyoslang: lotincha *atta*, bolalar tilida otaga murojaat, yunoncha *atta* — *nana*, qadimgi nemis tilida *atto* va qadimiy sanskrit tilida *atta* — *мать*) ildizidan kichraytiruvchi qo‘shimchasi *-ъць* jordamida kelib chiqqani qiziq” [Черных 1956: 30]. *Отец* (‘ota’) so‘zi bilan bog‘liq ismlarining qo‘llanilishini alohida tadqiq qilgan O. N. Trubachev ta‘kidlaganidek, “slavyancha *отъсь* so‘zining asosida отцы ‘otalar’ ma‘nosi yotadi, bundan uning etimologiyasi dalolat beradi: *отъсь* < *att-iko-s < *atta*” [Трубачев 1959: 25] (tarjima bizniki. — M. S.).

E. V. Sevortyanning fikri e‘tiborga molik: “lotin, got tillarida *atta* ‘ota’ (ispancha *padre*, ruscha *отец*, o‘zbekcha *ota* — M. R.) — ‘bolalarning otalariga nisbatan mehr-muhabbat so‘zi’ (+ *-ila* “-ила” — kichraytiruvchi-

erkalatuvchi suffiks”; qadimgi nemis adabiy tilida *atto* “ota”, “ajdod” [Севортян 1974: 201] (tarjima bizniki. — M. S.). Bizning fikrimizcha, ota leksemasining kelib chiqishi haqida eng maqbul fikr O. N. Trubachev tomonidan bildirilgan: “dastlab urug‘ a’zolari eng yaqin otaning nomi sifatida “отъсь” terminini ishlatganlar, u o’zi aslida “отцов” (**ätt-iko-s*) bo’lgan, ya’ni oqsoqoldan, umumiy otadan kelib chiqqan (slav. **otъ*, u.-e. **ätta*)” [Трубачев 1959: 26] (tarjima bizniki. — M. S.).

Qadimgi rus yozma yodgorliklarida *отец*, “Словаря русского языка XI–XVII вв.” materiallariga muvofiq, ‘родитель’ (‘ota-ona’) ma’nosi “Изборник 1076 г.” matnida eslatib o’tilgan: “Утоли гневъ, бесу бо есть отецъ, егда без меры исходит” [Словарь русского языка XI–XVII вв. 1987: 236]. Ushbu lug‘at maqolasida uning boshqa ma’nolari ham keltirilgan, jumladan, «по религиозным представлениям — бог как творец, создатель всего сущего, а также первое лицо, или первая ипостась святой троицы (1076 г.); старший, главный, почитаемый подобно отцу; Духовник, исповедник: то же, что духовный отец» (1282 г.); то же, что крестный отец» [O’sha yerda].

Rus tilining zamonaviy leksikografik manbalarida mavjud bo’lgan *отец* so’zi haqidagi ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, vaqt o’tishi bilan uning semantik maydoni ancha kengaygan. S.A.Kuznetsovning “Большой толковый словарь русского языка” — ‘Rus tilining katta izohli lug‘ati’da *отец* so’zining quyidagi ma’nolari berilgan: “1) мужчина по отношению к своим детям; 2) самец по отношению к своему потомству; 3) предшествующее поколение, предки; 4) о том, кто заботится о ком-л., находящемся в его подчинении, в зависимости от него; покровитель, благодетель; 5) о лицах, стоящих во главе чего-л., руководящих чем-л.; 6) родоначальник, основоположник чего-л.; 7) обращение к пожилому мужчине или к мужу как отцу своих детей; 8) именование служителей культа, монахов” [Современный толковый словарь русского языка 2004: 471–472] (‘1) erkakning o’z bolalariga bo’lgan munosabati; 2) erkakning o’z avlodiga bo’lgan munosabati; 3) oldingi avlod, ajdodlar; 4) o’z qaramog‘ida bo’lgan kishi haqida tashvishda bo’ladigan kimsa; homiy, muruvvat ko’rsatuvchi; 5) biror narsaning boshida turgan, biror narsaga mas’ul bo’lgan shaxslar haqida; 6) urug‘ boshlig‘i, biror narsaning asoschisi; 7) keksa odamga yoki o’z bolalarining otasi sifatida eriga murojaat qilish; 8) ruhoniylarning, rohiblarning nomlanishi’) (tarjima bizniki. — M. S.).

Turkologlar L.Z. Budagov [Будагов 1869–1871: 70] va V. V. Radlovlarining [Радлов 1893: 450–451] ta’kidlashlaricha, ‘biologik ota’ tushunchasi o’zbek tilining yozma yodgorliklarida *ota* leksemasi bilan ifodalanadi. U *ata* shaklida ozarbayjon, boshqird, qozoq, qaraim, qoraqalpoq, qorachoy, qirg‘iz, qrim-tatar, qumiq, no’g‘ay, tatar, turkman va uyg‘ur kabi hozirgi turkiy tillarda keng qo’llanilgan va qo’llanilmoqda.

O’zbek tilining qon-qarindosh terminlari turkiy leksikografik manbalarida va ularning tahliliga bag‘ishlangan tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida qayd etilishicha, xotin-qizlar yoshi katta erkaklarga *ota* leksemasi orqali, nevaralar otasining otasiga (bobo so’zi yordamida onasining otasiga) murojaat qilishgan [Исmoilov 1966: 28–31].

O’zbek tilida ham *ota* so’zi dastlab ‘erkak kishining o’z bolalariga nisbatan munosabatini’ bildirgan, shundan keyin u yangi hosila ma’nolarda

qo'llanila boshlagan: "2 Yoshi katta kishilarga murojaat qilishda yoki ularni hurmatlash... . 3 O'g'il bolani erkatlatish... . 4 Biror ish yoki harakatni boshlab bergan, unga asos slogan kishi haqida. 5 Mehribon boshliq, rahnamo haqida. 6 El-yurtga boshchilik qiluvchi, Yoshi yoki mansabi ulug' zot haqida" [O'zbek tilining izohli lug'ati 2022: 542–543].

Shu bilan birga o'zbek tilida *ota*, o'zining ildiz shaklidan tashqari, murakkab terminlar tarkibida ham ishlatiladi: "катта ота" (isp. 'tatarabuelo', rus. 'прадед') — 'otaning otasi'; "қайин ота" (isp. 'suegro', rus. 'тесть') — 'kuyovning qaynotasiga murojaati'.

Ispan va rus tillarida *padre* va *отец* yordamida hosil bo'lgan ekvivalentsiz murakkab o'zbek terminlarining berilishi alohida qiziqish uyg'otadi. Masalan, o'zbekcha *oldiga chiqqan ota* "kuyovning qarindoshlaridan biri bo'lgan ishonchli vakil, kelinning himoyachisi". Shu sababli kelin uni ota deb chaqiradi. Ota so'zining bu ma'nosi rus va ispan tillariga yot tushuncha bo'lib, ularda semantik muvofiqlik yo'q.

Diqqatga sazovor tomoni shundaki, *ota* leksemasi ayrim affiksalar birikmalari bilan diminutiv-ekspressiv ["Diminutiv" 'kamaytiruvchi shakl — odatda kichraytiruvchi affiksalar orqali ifodalanadigan kichik hajm, hajm va hokazolarning subyektiv-baho ma'nosini bildiruvchi so'z yoki so'z shakli' // <https://kartaslov.ru>; "Ekspressivlik" (lotincha: ifodalanish, namoyon bo'lish) — har xil individlarda ma'lum gen allelining fenotipik namoyon bo'lish darajasi // <https://www.google.com/search?q=ekspressivlik+nima>] va "atributiv" 'atributiv 'aniqlovchili'[O'zbek tilining izohli lug'ati 2022: 542–543] noziklikka ega bo'ladi. Ularning ba'zi birlariga to'xtalib o'tamiz:

1) *-jon* — *otajon* 'o'z otasiga, qari hamda begona shaxslarga nisbatan hurmat';

2) *-xon* — *otaxon* 'yosh ulug' shaxslarga xushmuomalalik bilan murojaat qilish', 'o'z otasini hurmalash';

2) *-lik* — *otalik*:

a) 'ota va uning bolasi o'rtasidagi qon-qarindoshlik';

b) 'o'gay ota';

b) 'birovga, biror narsaga, biror-bir tashkilotga tizimli (iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy va hokazo) yordam ko'rsatish bo'yicha ijtimoiy faoliyat';

3) *-lar + cha* — *otalarcha* 'biror bir kishiga (qarindosh bo'lmagan) yordam ko'rsatadigan shaxs';

4) *-li* — *otali* 'otasi bor shaxs';

5) *-si* — *otasi* 'xotinning eriga, bolalarining otasiga murojaati'. Qoshimcha ravishda qiyoslang: *omamuz* (< *oma* + tegishli 3- shaxs ko'plik affiksi) — so'zma-so'z 'bizning otamiz', ya'ni 'mening erimning otasi; bizning oilamizning (bolalarimizning) otasi' [Исmoilov 1966: 33–37].

Ota leksemasi o'zbek ismlari atama tarkibiy qismi sifatida *-bek*, *-bergan*, *-berdi*, *-vali*, *-jon*, *-yor*, *-keldi*, *-murod*, *-niyoz*, *-said*, *-turdi*, *-xon* kabi qo'shimchalaridan oldin qo'llanilib, ma'lum bir ma'nolarni bildiradi: *Otabek* 'shahzoda, xonzoda; beklar boshlig'i', *Otabergan*, *Otaberdi* 'avliyolar, muqaddas ruhlar ato qilgan bola', *Otaval* 'otasining ismi berilgan vali (avliyolar) yor bo'lsin, qo'llab yursin', *Otajon* 'otasining ismi berilgan azia bola', *Otayor* 'avliyolar, mug'addas ruhlar yor bo'lsin' qo'llasin yoki otaga do'st, hamdam bo'lib o'ssin', *Otakeldi* 'marhum otasi yoki bobosi o'rniga kelgan bola', *Otamurod* 'otasining ismi berilgan va

orzuyimiz, armonimiz bo‘lgan bola’, *Otaniyoz* ‘aziz avliyolardan o‘tinib, so‘rab olingan bola’, *Otasaid* ‘otasining ismi berilgan bola baxtli, saodatmand bo‘lsin’, *Otaturdi* ‘ota yoki bobosining ismi berilgan bola turadi, yashaydi’, *Otaxon* ‘otasi yoki bobosining ismi berilgan aziz bola’ [Берматов 2007: 328–329],

Madre – мамъ – ona

Qon-qarindoshlikni bildiruvchi ispancha *madre*, ruscha *мамъ*, o‘zbekcha *ona* leksemalari shaklan turli ko‘rinishga ega bo‘lsa-da, ma’no jihatdan o‘xshash — “farzandli yoki farzandlari bo‘lgan xotin (o‘z tug‘gan farzandlariga nisbatan)” [O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2022: 489] denonativ ma’noga ega.

“Diccionario de la Real Academia Española (DRAE)” (‘Qirolik ispan akademiyasining lug‘ati’) lugatiga muvofiq, ispancha *madre* kelib chiqishi nuqtayi nazardan lotincha *mātēr* (til oldi undoshining — $t \rightarrow d$ zaiflashi natijasida) so‘ziga borib taqalish e’trof etilib, uning quyidagi ma’nolari qayd etilgan: “1. ‘Hembra que ha parido’. 2. ‘Hembra respecto de su hijo o hijos’. Adi” [Diccionario de la lengua española — URL https://es.wikipedia.org/wiki/Diccionario_de_la_lengua_espa1ola]

‘1. Tuqqan ayol. 2. O‘g‘li yoki o‘illariga nisbatan ayol’ (tarjima bizniki. — M. S.). Birinchisiga kelsak (ilk bor lug‘atlarda ishlatilgandan beri), bu homiladorlik bilan belgilanadigan ancha o‘ziga xos va biologik belgidir. Biroq ikkinchi holda, onaning qo‘llanilishi konteksti kengaytiriladi, ya’ni ‘bolalarga egalik qilish yoki boqish’ tegishli xususiyatni bildiruvchi bu so‘z nafaqat onaga, balki bolalarni ham tug‘adigan, ham tarbiyalagan kishiga tegishli bo‘ladi [Alexis R.A. *Origen de las palabras “madre” y “mamá”* // <https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/origen-de-las-palabras-madre-y-mama>].

Dunyoning ko‘plab tillarida *mātēr* so‘zi ma’lum darajada yosh bolaning (go‘dakning) ‘ma, ma, ma’ tovushlariga taqlid qilishdir. **ter* suffiksi odatda ‘qarindoshlik’ ma’nosini bildiradi: lot. *pater*, ing. *brother* ‘aka’, *sister* ‘singil’, .yunon. *mētēr* ‘ona’. Ushbu lotincha “*mātēr*” termindan ispan tilida qator *materno*, *maternal*, *maternidad* (rus. ‘материнский, материнство’) kabi yangi murakkab so‘lar paydo bo‘lgan.

[Nelly Trelles Castro o‘zining “Riqueza léxica y semántica de la palabra madre”](#) [Nelly María Trelles Castro. *Riqueza léxica y semántica de la palabra madre* // <https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/riqueza-lexica-y-semantica-de-la-palabra-madre/>] ‘Madre so‘zining leksik-semantik boyligi Nelly María Trelles Castroning yozishicha, ispan tilida *madre* so‘zining birinchi eslatmasi 1074-yildagi hujjatlardan birida — Gonzalo de Berseo (12-asr) ba’zi she’rlarida uchraydi:

Luego en el comienço e en la primería,

A ella merçet pido, ella sea mi guía;

Ruegue a la Gloriosa Madre Sancta María,

Que sea nuestra guarda de noche e de día. (Gonzalo de Berceo. Antología).

Ispancha “Diccionario de la lengua española” (Ispan tilining izohli lug‘ati) manbaida *madre* so‘zining quyidagi ma’nolari keltirilgan:

“1. Mujer que ha concebido o ha parido uno o más hijos.

2. Mujer en relación con sus hijos.
3. Mujer con cualidades atribuidas a una madre, especialmente su carácter protector y afectivo.
4. Mujer que ejerce de madre.
5. Animal hembra que ha concebido o ha parido una o más crías.
6. Título que se da a ciertas religiosas.
7. En los hospitales y casas de recogimiento, mujer a cuyo cargo estaba el gobierno en todo o en parte.
8. Matriz en que se desarrolla el feto.
9. Autora, creadora o fundadora de algo.
10. Causa, raíz u origen de donde proviene algo.
11. Aquello en lo que figuradamente concurren circunstancias propias de la maternidad.
12. Cauce por donde ordinariamente corren las aguas de un río o arroyo.
13. Acequia principal de la que parten o donde desaguan las [hijuelas](#) (canals que conducen el agua desde una acequia).
14. Alcantarilla o cloaca maestra.
15. Heces del mosto, vino o vinagre, que se sientan en el fondo de la cuba,
16. Madero principal donde tienen su fundamento, sujeción o apoyo otras partes de ciertas armazones, máquinas, etc., y también cuando hace oficio de eje.
17. Coloq. Mujer anciana del pueblo.
18. Cuartón grueso de madera que va desde el alcázar al castillo por cada banda de crujía” [Diccionario de la lengua española // https://es.wikipedia.org/wiki/Diccionario_de_la_lengua_espa1ola].
- (‘1. Bir yoki bir nechta bola tuqqan ayol.
2. Ayol o‘z farzdlariga nisbatan.
3. Onaga xos fazilatlarg, ayniqsa muloyim tabiatga ega ayol.
4. Ona vazifasini bajaradigan ayol.
5. Bir yoki bir nechta nasl tuqqan urg‘ochi hayvon
6. Muayyan rohibalarga berilgan unvon.
7. Kasalxonalarda va xotira uylarida hukumat uchun to‘liq yoki qisman javob beruvch ayol.
8. Homila rivojlanadigan bachadon.
9. Biror narsaning muallifi, yaratuvchisi yoki asoschisi.
10. Biror narsa kelib chiqadigan sabab, ildiz yoki manba.
11. Onalik sharoitlari majoziy ma’noda mos keladigan narsa.
12. Daryo yoki daryo suvlari odatda oqadigan kanal.
13. Hijuelas (ariqdan suv olib boradigan kanallar) boshlanadigan asosiy ariq yoki ular oqadigan joy.
14. Kanalizatsiya yoki asosiy kanalizatsiya.
15. Chan (bir tomoni ocniq yog‘och bochka), banka pastki qismida joylashgan najas atalasi, sharob yoki sirka.
16. Ma’lum ramkalarning boshqa qismlari, mashinalar poydevori, mahkamlash yoki tayanchiga ega, shuningdek, u o‘q bo‘lib xizmat qiladigan asosiy yog‘och.

17. Qishloqlik kekxa ayol.

18. Ko'rfazning ikki tomonida qal'adan qal'agacha bo'lgan qalin yog'ochli kvartal' (tarjima bizniki. — M. S.).

Ispan tilida *madre* so'zining sinonimi sifatida *mama* ham qo'llaniladi. Asosan bolalar og'zaki nutqida ishlatiladigan ushbu leksema fransuzcha *maman* so'zining moslashgan shakli hisoblanadi. E'tiborli tomoni shundaki, agarda urg'u ikkinchi bo'g'inga tushsa, (*mamá*) 'ona', birinchi bo'g'inga tushsa (*máma*) 'siyna, emchak' ma'nosini bildiradi. Ispancha *mamá* XVIII asrda fransuz-ispan saroyi ta'siri ostida qabul qilingan [Ricardo Soca. La fascinante historia de las palabras.— Buenos Aires : Interzona Editora, 2011. — 1a ed. [<https://www.elcastellano.org/palabra/mam%C3%A1>]]. Tilshunoslarning fikricha, u tili chiqqan yosh bolaning g'o'ng'irlashidan hosil bo'lgan bo'g'inning qo'shilishi evaziga yasaladi — *ma-má* [Nelly María Trelles Castro. [Riqueza léxica y semántica de la palabra madre](https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/riqueza-lexica-y-semantica-de-la-palabra-madre/) // <https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/riqueza-lexica-y-semantica-de-la-palabra-madre/>; Wilson García Mérida. El origen de la palabra mamá // <https://www.soldependo.com/el-origen/>; Yacobson 1960: 124–134; Зельдин 2018: 124; Зельдин 2024: 257]. Hayotiy qonuniyat — [ma] chaqaloq emizayotganda chiqaradigan tovushga yaqin. R.Yacobson o'zining “Why ‘Mama’ and ‘Papa’?” ‘Nima uchun ‘ona’ va ‘ota’?’ nomli maqolasida bu haqda shunday fikr bildiradi: “Ko'pincha chaqaloqning so'rish harakatlariga burunning yengil g'ichirlashi hamroh bo'ladi — lablar onaning ko'kragiga yoki emizish butilkasiga (idishiga) bosilganda va og'iz to'la bo'lganda paydo bo'lishi mumkin bo'lgan yagona ovoz. ... Og'iz bo'shlig'ini ovqatlantirishdan (emizuvchi onadan) ozod bo'lganda, burunning shovqini og'iz orqali, xususan, labial sekretiya bilan to'ldirilib, u qo'shimcha ovoqli yordam ham olishi mumkin” [Yacobson 1960: 128].

Ispan tilida *mamá* so'zining bolalar tilida erkalab, murojaat qilishni bildiruvchi *mami* shakli ham mavjud.

Qator dunyo tillarida, jumladan, ispan, bolgar, belorus, ukrain, polyak, nemis, yapon, turk, makedon, serb-xorvat, qo'llaniladigan *mama* (<*ma-má*) [Фасмер 1982: 565] so'zining ruscha shakli — *мама* ilk bor, «Словарь русского языка XI–XVII вв.» keltirgan ma'lumotga muvofiq, XVII asrga tegishli bo'lgan “Праздник кабацких ярыжек” nomli manbada qayd etilgan: “Родила вас мама, да не приняла вас яма” [Словарь русского языка XI–XVII вв. 1982: 24].

Ruscha *мама* leksemasining sinonimi umumslavyancha *мать* kelib chiqishi nuqtayi nazardan qadimiy slavyancha *mati* (<*mātē <*mater) so'ziga borib taqaladi. Bunga boshqa hind-yevropa tillari materallariga murojaat qilib, ishonch hosil qilish mumkin: sanskritcha *mātr*, yunoncha *μήτηρ* (*mētēr*), lotincha *mater*, inglizcha *mother*, nemischa *mutter*, forsch *mādar*, linovcha *mótè*, latishcha *mâte*. Ularning asosida bola nutqiga tegishli so'z *mā- yotadi. Shu bilan birgalikda, ushbu so'zning qadimiy shakli aynan (ukraincha *мати*, bolgarcha *mati*, slovencha *mati*, chexcha *mati*) yoki moslashgan (belorus. *маці*) ko'rinishda saqlanib qolgan [Фасмер 1967: 583–584].

“Словарь русского языка XI–XVII вв.” *мать* (<мати) leksemasini ‘мать’ ma'nosida ilk bor “Остромирово евангелие 1056-1057” yodgorligi matnida 1128-yilda qo'llanilganligini qayd etgan: “Придоша же къ нему матери и братия его” [Словарь русского языка XI–XVII вв. 1982: 47].

Ushbu lugʻat maqolasida uning konnotativ maʼnosida — ‘теща (и свекровь?)’ S. I. Kotkovning “Очерки по синтаксису южновеликорусской письменности XVII в.” kitobida uning 1625-yil ostida qoʻllanilgani aytib oʻtilgan: “Мат<ь> моя богом даная теща Орина девка почали им говорит<ь>” [Oʻsha erda].

A. F. Juravlyov va N. M. Shanskiy tahriri ostida chop etilgan “Этимологический словарь русского языка” *мать* soʻzi etimologiyasi haqida quyidagi maʼlumotlarni keltirilgan: “*mâtër восходит к *mä — примитивному детскому лепету” [Этимологический словарь русского языка 2007: 105] “*mâtër oddiy роума-роу goʻdakona gapga — *mä ga taqaladi” (tarjima bizniki. — M. S.).

S. A. Kuznetsov tomonidan tuzilgan “Большой толковый словарь русского языка” ruscha *мать* soʻzini quyidagicha talqin qilgan: “... 1. Женщина по отношению к рождённым ею детям. ... 2. О том, что является родным, близким, дорогим, представляя собой какую-л. духовную ценность” ... 3. Самка по отношению к своим детёнышам. ... 4. О том, от которого или в котором зарождается, образуется что-л. новое или подобное ему. ... 5. О женщине, жене. ... 6. О жене священника или монахини (обычно присоединяется к имени или званию)” [Большой толковый словарь русского языка 2000: 525–526] — ‘1. Oʻzidan tugʻilgan bolalarga munosabatda boʻlgan ayol’. ... 2. Har qanday maʼnaviy qadriyatni ifodalab, ona, yaqin, aziz boʻlish haqida. ... 3. Oʻz bolalariga nisbatan munosabatdagi urgʻochi. ... 4. Qaysinisidan yoki qaysinisida paydo boʻladi, yangi yoki shunga oʻxshash har qanday narsa shakllanadi. ... 5. Ayol, xotin haqida. ... 6. Ruhoniyni xotini yoki rohibasi haqida (odatda ism yoki unvonga birlashtiriladi) ... (tarjima bizniki. — M. S.).

Rus tilida bolalar erkalanib, oʻz onalariga *маманя; мамаша, мамка, мамочка, мамушка, маманя; мамаша, мамка, мамочка, мамушка, матушка; мамулёк; мамуля, мамуся, мамулечка; маменька; мамик* deb murojaat qilishadi.

Tilshunoslarning fikriga qaraganda, ehtimol, *мама* leksemasi *мать* soʻzidan oldin paydo boʻlgan [Мама моя женщина: что не так со словом «мать» https://www.izbornik.ru/opinions/about_mat.].

Oʻzbek oilalarida ham emizikli bolalar taxminan 7–8 oyligida qorni och qolganda emiztiruvchi insonga *má-má* (ikkala boʻgʻinga urgʻu tushurib) deb murojaat qiladi. Ushbu oʻzbekcha goʻdakona soʻz, ispan va rus tillaridagidek, ‘siyna, emchak’ maʼnosini bildiradi. Biroz ulgaygandan soʻng, taxminan 10 oyligidan boshlab, goʻdaklar atrof-muhit taʼsirida uni dunyoga ketirganni ona (baʼzi hollarda shevaga moslashib, aya, oyi) deb boshlaydi.

Qator turkologlar fikriga koʻra, qadimgi turkiy tilga xos *ana* (“турк<менский> ене, тат<арский> диал. inä, äñäü, öñnä, башк<ирский> inä, кум<ыкский>, <каракалпакский>., каз<ахский> ене, каз<ахский> диал. äni, кирг<изский>, алт<айский>, тув<инский>, туркм<менский> ене, узб<екский>. диал. ена ~ еnä, лобн. ене; хак<асский> ine, чул<ымский>. äñä, ine, чув<ашский> anne (также ама), чув<ашский> диал. ani, уйг<урский> ana”) soʻzi oʻzining denotativ – birlamchi ‘farzandli yoki farzandlari boʻlgan xotin’ manosida hozirgi oʻzbek tilida *ona* (shevalarda *ena* — *enä*) shaklida faol qoʻllanilib kelinmoqda.

Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining etimologik lug‘atida” qayd etilishicha, o‘zbek tilida *ona* so‘zi “boshlanishidagi **a** unlisi **â** unlisiga, so‘z oxiridagi **a** unlisi **ä** unlisiga almashgan: **ana** > **ânä**” [Рахматуллаев 2000: 155].

O‘zbek tilining izohli lug‘atida *ona* leksemasining quyidagi konnotativ ma‘nolari qayd etilgan: “2 Oila boshlig‘i, tarbiyachisi... . 3 Keksa ayollarga hurmat yuzasidan ularning nomiga qo‘shilib ishlatiladi... . 4 Keksa ayollarga hurmat bilan murojaat etish shakli. 5 Bola tug‘gan jonivor... . 6 Yaratuvchi, vujudga keltiruvchi... .” [O‘zbek tilining izohli lug‘ati 2022: 490].

O‘zbek tilining lug‘at qatlamida *ona* leksemasi bo‘lgan qator so‘zlar mavjud. Ular quyidagi yo‘llar bilan hosil bo‘lgan:

1) defis(-) bilan otlarning juftlashishidan — *ota-ona*, *ota-yu ona* (-**yu** — yuklama), *ona-bola*;

2) otlarning juftlashishidan — *onaxotin*; *onaizor*, *onaxon*.

3) affikslar yordamida — *-jon* (*onajon*), *-si* (*onasi* ‘otaning o‘z farzandlarini onasiga murojaat qilishi’), *-lik* (*onalik*), *-siz* (*onasiz*), *-lar + -cha* (*onalarcha*), *-siz + lik* (*onasizlik*).

Ona so‘zi o‘zbek ismlari strukturasi *baxt* (arabcha), *bibi* (hindcha), *buvi* (forscha), *gul* (forscha), *jahon* (forscha), *jon* (forscha), *qiz* (turkiycha) leksemalaridan oldin qo‘llanilib, ma‘lum bir ma‘nolarni bildiradi: *Onabaxt* ‘marhum onasining shodligi, baxti bo‘lgan qiz yoki onasining ismini olgan saodatli qiz’; *Onabibi* ‘onasining ismini olgan baland martabali qiz’; *Onabuvi* ‘onasining ismi berilgan qiz’; *Onagul* ‘onasining ismi berilgan qiz’; *Onajahon* ‘onasining ismi berilgan jahonga tatirlik qiz’; *Onajon* ‘marhum bevasi yoki onasining ismi berilgan jondek aziz qiz’; *Onaqiz* ‘oiladagi to‘ng‘ich bola yoki onasi ismi bilan atalgan qiz’ [Берматов 2007: 324–425].

Xulosa

Yuqorida bayon etilgan materialga asoslanib, quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:

1. Ispan, rus va o‘zbek tillarida qo‘llanilgan barcha qarindoshlik terminlarning tizimi ravishda soddalashtirilganligi, oilalardan tashqari, ularning munosabatlari ijtimoiy mavqeyi bilan belgilanadi.

2. Ispan, rus yoki o‘zbek madaniyatida mavjud bo‘lmagan ekvivalentsiz qon-qarindoshlikni bildiruvchi leksemalarning semantikasi faqat tavsif yoki talqin yo‘li bilan aniqlanadi.

3. *Padre*, *madre* (ispan) *отец*, *мать* (rus) va *ota*, *ona* (o‘zbek) lug‘atlari maqolalaridagi ta’riflar va izohlar ispan, rus va o‘zbek xalqlarining oilaviy-qarindoshlik munosabatlarining shakllanishining o‘ziga xosligi hamda rivojlanganligini ochib beradi.

4. Ispancha *padre*, *madre*, ruscha *отец*, *мать*, o‘zbekcha *ota*, *ona* so‘zlarining kelib chiqishi va semantik strukturasi bir-birovidan farq qiladi.

5. Ispan va rus tillariga tegishli ravishda taalluqli bo‘lgan *papá*, *mamá*; *nána*, *máma* so‘zlari bolalarning go‘dakona gaplarida *pa-* (*na-*), *ma-* (*ma-*) bo‘g‘inlarining ikki marotaba qaytarilishi evaziga paydo bo‘lgan.

6. *Má-má* soʻzi oʻzbek tilida goʻdaklar tilida maʼlum bir yoshgacha, ispancha *madre* va ruscha *мать* leksemalaridan farqli ravishda, ‘ona siynasi’ maʼnosida qoʻllaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Головкина С. Х. Термины родства в поэзии Н. Крюева (в лексикографическом аспекте): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. — Вологда, 1999. — 21 с.
- Исмоилов И. А. Туркий тилларда қавм-қариндошлик терминлари (ўзбек, уйғур, қозок, қирғиз, қорақалпоқ, туркман тиллари материаллари асосида). — Тошкент: Ўзбекистон ССР “Фан” нашриёти, 1966. — 149 б.
- Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги қариндошлик терминлари // Ўзбек халқ шевалари луғати. — Тошкент, 1971. — Б. 320–385.
- Зельдин А.Е. Голофраза в протоязыке — семантика и морфология // Вестник удмуртского университета. Серия история и филология, 2024. — Т. 34. — Вып. 2. — С. 247–269.
- Зельдин А.Е. Звуковой символ «мама» в синхроническом и диахроническом аспекте // Вопросы психолингвистики, 2018. — Т. 4. — Вып. 38. — С. 120-136;
- Кошелева Е. Ю. Терминология родства в русском языке // Альманах современной науки и образования. — Томск: Издательство «Грамота», 2009. — № 2 (21). — Часть 2. — С. 73–74.
- Ломтев Т. П. Принципы выделения дифференциальных семантических элементов // Общее и русское языкознание. Избранные работы. — М : Наука, 1976. — С. 272–289.
- Моисеев А.И. Термины родства в современном русском языке // Филологические науки: Научные доклады высшей школы. — М.: Наука, 1963. — № 3. — С. 120–132
- Сандлер Ю. Н. Межъязыковые лакуны в наименовании родственных взаимоотношений в русском и испанском языках // Освоение семантического пространства русского языка иностранцами: сб. материалов Междунар. науч.-практ. онлайн-конференции. — Н. Новгород : Изд-во НГЛУ, 2020. — С. 232–239.
- Саидова М. Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик тахлили: Автореф. дисс. ...канд. филол. наук. — Тошкент, 1995. — 21 б.
- Сравнительно-историческая грамматика тюркских языков. Лексика: 2-е изд., доп., кн. 4. — М.: Наука, 2001. — 822 с.;
- Трубачев О. Н. История славянских терминов родства и некоторых древнейших терминов общественного строя. — М.: Изд-во АН СССР, 1959. — 211 с
- Черных П. Я. Очерк русской исторической лексикологии. Древнерусский период. — М.: Изд-во Моск. ун-та, 1956. — 243 с.
- [Alexis R.A. Origen de las palabras “madre” y “mamá” // https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/origen-de-las-palabras-madre-y-mama;](https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/origen-de-las-palabras-madre-y-mama;)
- [Jairo Javier G.S. Los grados de abuelo en la historia del español // Actas del VIII Congreso Internacional de Historia de la Lengua Española:](#) Santiago de

- Compostela, 14–18 de septiembre de 2009 / coord. por [Emilio Montero Cartelle](#), [Carmen Manzano Rovira](#), 2012. — Vol. 2. — P. 1385–1394.
- Nelly María Trelles Castro. Riqueza léxica y semántica de la palabra madre <https://www.udep.edu.pe/castellanoactual/riqueza-lexica-y-semantica-de-la-palabra-madre/>
- Nuevo diccionario esencial de la lengua Española / Gregorio Salvador. — Santillana, 2000. — 1414 p.
- Ricardo Soca. La fascinante historia de las palabras. — Buenos Aires : Interzona Editora, 2011. (<https://www.elcastellano.org/palabra/mam%C3%A1>)
- Traducción de «родитель-одиночка» en Español. URL: <https://context.reverso.net/traduccion/ruso-espanol/>
- Wallace A., Atkins J. Meaning of Kinship Terms. American Anthropologist. 1960. Vol. 62. — Pt. I. — Pp. 58–80.
- Wilson García Mérida. El origen de la palabra mamá // <https://www.soldepando.com/el-origen/>
- Yacobson R. Why ‘Mama’ and ‘Papa’? // Perspectives in Psychological Theory: Essays in Honour of Heinz Werner / Kaplan B., Wapner S.-NY: International University Press, 1960. — P. 124–134.

Manbalar

- Бегматов Э.А. Ўзбек исмлири маъноси: (Изоҳли луғат). — Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. — 608 б.
- Большой толковый словарь русского языка / Гл. ред. С.А.Кузнецов. — СПб.: «Норинт», 2000. — 1536 с.
- Будагов Л. З. Сравнительный словарь турецко-татарских наречий. — СПб., 1869–1871. — Т. I. — 810 с.
- Как обращаться к родственникам и любимым. URL: <https://ichebник.ru/tonkosti-ispanskogo/772-kakobrashchatsya-k>
- Мама моя женщина: что не так со словом «мать» https://www.izbornik.ru/opinions/about_mat
- Перевод *mis papas* на русский язык // <https://context.reverso.net>.
- Перевод «para su trabajo» на русский язык. URL: <https://context.reverso.net/перевод/испанский-русский/para+su+trabajo>
- Перевод «museo» на русский. URL: <https://context.reverso.net/перевод/испанский-русский/museo>.
- Перевод *Papá Noel* на русский язык // <https://context.reverso.net>
- Перевод «para su trabajo» на русский язык. URL: <https://context.reverso.net/перевод/испанский-русский/para+su+trabajo>.
- Радлов В. В. Опыт словаря тюркских наречий. — СПб., 1893. — Т. 1. — 967 с.
- Русско-узбекский словарь: в 2 т. — Ташкент: Главная редакция УзСЭ, 1984. — Т. 2. — 800 с.
- Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). — Тошкент: “Университет”, 2000. — 600 б.
- Севортян Э.В. Этимологический словарь тюркских языков (Общетюркские и межтюркские основы на гласные). — М.: Наука, 1974. — 767 с.

- Словарь русского языка XI-XVII вв. — М.: Наука, 1982. — Вып. 9. — 357 с.
- Словарь русского языка XI—XVII вв. — М.: Наука, 1987. — Вып. 13. — 318 с.
- Современный толковый словарь русского языка / гл. ред. С. А. Кузнецов. — М.: Ридерз Дайжест, 2004. — 960 с.
- Фасмер М. Этимологический словарь русского языка. — М.: Изд-во «Прогресс», 1967. — Т. II. — 671 с.
- Шанский Н. М., Иванов В. В., Шанская Т. В. Краткий этимологический словарь русского языка. Пособие для учителя. 2-е изд., исп. и доп. — М.: Просвещение, 1971. — 542 с.
- Этимологический словарь русского языка / под ред. А.Ф. Журавлева, Н.М. Шанского. — Вып. 10. — М.: Изд-во МГУ, 2007. — 400 с.
- Diminutiv 'kamaytiruvchi shakl — odatda kichraytiruvchi affikslar orqali ifodalanadigan kichik hajm, hajm va hokazolarning subyektiv-baho ma'nosini bildiruvchi so'z yoki so'z shakli' // <https://kartaslov.ru>
- Ekspressivlik (lotincha: ifodalanish, namoyon bo'lish) — har xil individlarda ma'lum gen allelining fenotipik namoyon bo'lish darajasi // <https://www.google.com/search?q=ekspressivlik+nima>
- Diccionario de la lengua española // https://es.wikipedia.org/wiki/Diccionario_de_la_lengua_espa1ola;
- Corominas J. Y., Pascual, J.A. Diccionario Crítico Etimológico Castellano e Hispánico. — Madrid, 1980. — 850 p. (<https://archive.org/details/joanco-2/JO1540~1/>)
- El padrino — translation from Spanish into Russian. — URL: <https://translate.yandex.com/dictionary/es-ru/el%20padrino>
- Nuevo diccionario esencial de la lengua Española / Gregorio Salvador. 2-е изд., илл., перепеч. — Santillana, 2000. — 1414 p.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. — J. I. — 964 b.
- O'zbek tilining izohli lug'ati. — T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022. — J. III. — 844 b.

References

- Golovkina S. H. (1999). *Terminy rodstva v poezii N. Kljueva (v leksikograficheskom aspekte)* (Kinship terms in the poetry of N. Klyuev (in the lexicographic aspect)). Extended abstract of candidate's thesis. Vologda. (In Rus.)
- Ismoilov I. A. (1966). *Turkij tillarda qavm-qarindoshlik terminlari (uzbek, uzbek, qozoq, kirgiz, qoraqalpoq, turkman tillari materiallari asosida)* (Terms of ethnic kinship in Turkic languages (based on materials from Uzbek, Uyghur, Kazakh, Kyrgyz, Karakalpak, and Turkmen languages)), Tashkent: Fan. (In Uzb.)
- Ishaev A. Uzbek shevalaridagi karindoshlik terminlari // *Uzbek halk shevalari luzati*, Tashkent, 1971, 320–385. (In Uzb.)
- Zel'din A.E. Golofraza v protodzhyke — semantika i morfologiya // *Vestnik udmurtskogo universiteta. Seriya istoriya i filologiya*, 2024, vol. 34, issue. 2, 247–269. (In Rus.)

- Zel'din A.E. (2018). Zvukovoj simvol «mama» v sinhronicheskom i diahronicheskom aspekte // *Voprosy psiholingvistiki*, 4, 38, 120-136. (In Rus.)
- Kosheleva E. Ju. (2009). Terminologija rodstva v russkom jazyke // *Al'manah sovremennoj nauki i obrazovanija*. Tomsk: Izdatel'stvo "Gramota", No 2 (21), Part 2, 73–74. (In Rus.)
- Lomtev T. P. (1976). Principy vydelenija differencial'nyh semanticheskikh jelementov // *Obshhee i russkoe jazykoznanie. Izbrannye raboty*, Moscow, Nauka, pp. 272–289. (In Rus.)
- Moiseev A.I. (1963). Terminy rodstva v sovremennom russkom jazyke // *Filologicheskie nauki: Nauchnye doklady vysshej shkoly*. Moscow: Nauka, No 3, pp. 120–132. (In Rus.)
- Sandler Ju. N. (2020). Mezhjazykovye lakuny v naimenovanii rodstvennyh vzaimootnoshenij v russkom i ispanskome jazykah // *Osvoenie semanticheskogo prostranstva russkogo jazyka inostrancami*: Proceedings of the online International Conference. Nizhny Novgorod, Izd-vo NGLU, pp. 232–239. (In Rus.)
- Saidova M. Sh. (1995). Namangan shevalaridagi karindoshlik terminlarining leksik-semantik tahlili: Extended abstract of candidate's thesis. Tashkent. (In Uzb.)
- Sravnitel'no-istoricheskaja grammatika tjurkskih jazykov. Leksika* (Comparative-historical grammar of the Turkic languages. Vocabulary) (2001). 2nd ed., book 4. Moscow, Nauka. (In Rus.)
- Trubachev O. N. (1959). *Istorija slavjanskix terminov rodstva i nekotoryh drevnejshix terminov obshhestvennogo stroja* (History of Slavic terms of kinship and some ancient terms of social structure), Moscow, Izd-vo AN SSSR. (In Rus.)
- Chernyh P. Ja. (1956). Oчерк russkoj istoricheskoj leksikologii. (In Rus.) Drevnerusskij period (Essay on Russian Historical Lexicology. Old Russian Period). Moscow, Publishing house Moscow university. (In Rus.)
- Alexis R.A. Origen de las palabras “madre” y “mamá”. Retrieved from <https://www.udel.edu.pe/castellanoactual/origen-de-las-palabras-madre-y-mama>
- Jairo Javier G.S. Los grados de abuelo en la historia del español // *Actas del VIII Congreso Internacional de Historia de la Lengua Española*: Santiago de Compostela, 14–18 de septiembre de 2009 / coord. por Emilio Montero Cartelle, Carmen Manzano Rovira, 2012, Vol. 2, pp. 1385–1394.
- Nelly María Trelles Castro. Riqueza léxica y semántica de la palabra madre. Retrieved from <https://www.udel.edu.pe/castellanoactual/riqueza-lexica-y-semantica-de-la-palabra-madre/>
- Nuevo diccionario esencial de la lengua Española / Gregorio Salvador. (2000). Santillana, 2000.
- Ricardo Soca. (2011). La fascinante historia de las palabras. Buenos Aires : Interzona Editora. Retrieved from <https://www.elcastellano.org/palabra/mam%C3%A1> (In Span.)
- Traducción de «родитель-одиночка» en Español. Retrieved from <https://context.reverso.net/traduccion/ruso-espanol/>; (In Span.)
- Wallace A., Atkins J. (1960). Meaning of Kinship Terms. *American Anthropologist*. Vol. 62, pt. I, pp. 58–80.

Wilson García Mérida. El origen de la palabra mama. Retrieved from <https://www.soldepando.com/el-origen/> (In Span.)

Yacobson R. (1960). Why 'Mama' and 'Papa'? *Perspectives in Psychological Theory: Essays in Honour of Heinz Werner* / Kaplan B., Wapner S.-NY: International University Press, 124–134.

Sources

Begmatov, E.A. (2007). *Uzbek ismlari ma"nosi: Izoʻli luzat* (Meaning of Uzbek names: Explanatory dictionary). Tashkent, Uzbekiston millii entsiklopediyasi.

Kuznetsov, S.A. (Ed.). (2000). *Bol'shoi tolkovyi slovar' russkogo yazyka* (Large explanatory dictionary of the Russian language). Saint Petersburg, Norint. (In Rus.)

Budagov, L. Z. (1869). *Sravnitel'nyi slovar' turetsko-tatarskikh narechii* (Comparative dictionary of Turkish-Tatar dialects). Saint Petersburg. Vol. I. (In Rus.)

Kak obrashchat'sya k rodstvennikam i lyubimym (How to address relatives and loved ones). Retrieved from <https://ichebnik.ru/tonkosti-ispanskogo/772-kakobrashchatsya-k> (In Rus.)

Mama moya zhenshchina: chto ne tak so slovom mat' (Mom is my woman: what's wrong with the word mother). Retrieved from https://www.izbornik.ru/opinions/about_mat (In Rus.)

Perevod mis papas na russkii yazyk (Translation of Cape Papas into Russian). Retrieved from <https://context.reverso.net>.

Perevod "para su trabajo" na russkii yazyk (Translation of "par so trabae" into Russian). Retrieved from <https://context.reverso.net/perevod/ispanskii-russkii/para+su+trabajo>

Perevod museo na russkii (Translation of "museo" into Russian). Retrieved from <https://context.reverso.net/perevod/ispanskii-russkii/museo>

Perevod Papá Noel na russkii yazyk (Translation of Papá Noel into Russian). Retrieved from <https://context.reverso.net>

Perevod «para su trabajo» na russkii yazyk. Retrieved from <https://context.reverso.net/perevod/ispanskii-russkii/para+su+trabajo>

Radlov V. V. (1893). *Opyt slovarya tyurkskikh narechii* (An experiment in the dictionary of Turkic dialects). Saint Petersburg, Vol. 1. (In Rus.)

Russko-uzbekskii slovar' (Russian-Uzbek dictionary). (1984). in 2 vol. Tashkent: Glavnaya redaktsiya UzSE, vol. 2.

Raxmatullaev, Sh. (2000). *Uzbek tilining etimologik luzati (turkii suzlar)* (Etymological dictionary of the Uzbek language (Turkic words)). Tashkent, Universitet.

Sevortyan, E.V. (1974). *Etimologicheskii slovar' tyurkskikh yazykov (Obshchetyurkskie i mezhtyurkskie osnovy na glasnye)* (Etymological dictionary of Turkic languages (Common Turkic and inter-Turkic vowel bases)). Moscow, Nauka. (In Rus.)

Slovar' russkogo yazyka XI-XVII vv. (Dictionary of the Russian language XI-XVII centuries). Moscow, Nauka, 1982. Issue 9. (In Rus.)

Slovar' russkogo yazyka XI-XVII vv. (Dictionary of the Russian language XI-XVII centuries). Moscow, Nauka, 1987. Issue 13. (In Rus.)

- Kuznetsov, S.A. (Ed). (2004). *Sovremennyyi tolkovyi slovar' russkogo yazyka* (Modern explanatory dictionary of the Russian language). Moscow, Riderz Daizhest, 2004. (In Rus.)
- Fasmer, M. (1967). *Etimologicheskii slovar' russkogo yazyka* (Etymological dictionary of the Russian language). Moscow, Izd-vo Progress, vol. II. (In Rus.)
- Shanskii, N. M., Ivanov, V. V. & Shanskaya, T. V. (1971). *Kratkii etimologicheskii slovar' russkogo yazyka* (Brief Etymological Dictionary of the Russian Language). 2nd ed. Moscow, Prosveshchenie. (In Rus.)
- Zhuravlev, A.F. & Shanskii, N.M. (2007). (Eds.). *Etimologicheskii slovar' russkogo yazyka* (Etymological dictionary of the Russian language). Issue 10. Moscow, Izd-vo MGU. (In Rus.)
- Diminutiv 'kamaytiruvchi shakl — odatda kichraytiruvchi affikslar orqali ifodalanadigan kichik hajm, hajm va hokazolarning subyektiv-baho ma'nosini bildiruvchi so'z yoki so'z shakli'. Retrieved from <https://kartaslov.ru> (In Uzb.)
- Ekspressivlik (lotincha: ifodalanish, namoyon bo'lish) — har xil individlarda ma'lum gen allelining fenotipik namoyon bo'lish darajasi. Retrieved from <https://www.google.com/search?q=ekspressivlik+nima> (In Uzb.)
- Diccionario de la lengua española. Retrieved from https://es.wikipedia.org/wiki/Diccionario_de_la_lengua_espa1ola; (In Span.)
- Corominas J. Y., Pascual, J.A. *Diccionario Crítico Etimológico Castellano e Hispánico*. Madrid, 1980. Retrieved from <https://archive.org/details/joanco-2/JO1540~1/> (In Span.)
- El padrino — translation from Spanish into Russian. Retrieved from <https://translate.yandex.com/dictionary/es-ru/el%20padrino> (In Span.)
- Gregorio, Salvador. (2000). *Nuevo diccionario esencial de la lengua Española*. Santillana. (In Span.)
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. (2022). Tashkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, vol. I. (In Uzb.)
- O'zbek tilining izohli lug'ati*. (2023). Tashkent, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2023. vol. III. (In Uzb.)